



## O'RТА TIBBIY TA'LIMDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDANFOYDALANISH

**DJumabayev Ergash Ataxanovich**

*Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rindbosari*

**Sultanova To'pajon Rustam qizi**

*Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi "Klinik  
fanlar" kafedrasining yetakchi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada raqamlı ta'lım resurslari(RTR), o'rta tibbiy ta'limda raqamlı texnologiyadan foydalanish, raqamlı texnologiyani tibbiy ta'lım tizimi vostilari bilan foydalanish, tibbiyotda raqamlı texnologiyani ustunliklari, tibbiyot soxasidan tashqari boshqa soxalarda ham raqamlı ta'lım ustunligi, dasturlashtirilgan o'qitishning o'ziga xos xususiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** RTR-raqamlı ta'lım resurslari, o'rta tibbiy ta'limda raqamlı texnologiya, o'rta tibbiy ta'limda raqamlı ta'lım resursidan foydalanishning afzalliliklari, dasturlashtirilgan tizim.

### KIRISH

Bugungi kunda o'rta tibbiy ta'lım jarayonida ham raqamlı texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda rivojangan hozirgi davrda ta'lım tizimida raqamlı texnologiyalardan foydalanish ta'lım sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega. Biz ilgari ta'lım dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lım sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lım sifatini ta'minlashda ta'lımni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Raqamlı texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – faoliyat yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori



sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. O‘z tajribam davomida raqamli ta’lim platformasidan mashg’ulot o‘tkazish jarayonida shuni angladimki, bunda o‘qituvchi uchun ham o‘quvchilar uchun ham qulaylik tomonlari ko‘p va samaradorligi yuqori bo‘lar ekan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘rta tibbiy ta’lim sohasi ham raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari takomillashayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bunda esa ta’lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kadoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg’ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Raqamli ta’lim platformasidanib yoki televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi. Demak, raqamli ta’limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;
- vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;
- o‘tilgan mashg’ulotlarni qayta takrorlashga va kulgusi mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda qiyinchiliklar bo‘lmaydi.

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘sirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Ta’lim sohasida RTRdan foydalanish o‘qituvchilarga o‘qitishning metodlarini, tashkiliy shaklini, va mazmunini sifatl o‘zgartirish imkonini beradi Pedagogik faoliyat vositalari takomillashtirilmoqda, o‘qitish sifati va samaradorligi ortib bormoqda. RTR an’anaviy o‘qitish vositalariga nisbatan juda ko‘p afzalliklarga ega. Ta’lim jarayonida ma’lum bir sabalarga ko‘ra uzilishlar bo‘lgan xolda ham masafaviy tarzda darslarni o‘zlashtirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali



davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik to‘siqlar bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin. Ko‘pgina maishiy texnikaning elektr tarmog‘iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko‘proq ob’ektlari internetga ulanadi, bu esa ma’lumot to‘plash va hatto ushbu ob’ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi . Dasturlashtirilgan o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati – bu o‘quv jarayonini faollashtirishgayordam beradigan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat, shuningdek, o‘qitishni individuallashtirish va differensiallashtirishmumkin bo‘lgan tezkor aloqaning mavjudligidir.

## XULOSA

Raqamli texnologiyalar – o‘rta tibbiyot sohasida o‘quvchi va o‘qituvchi uchun ham ko‘plab qulayliklar beradi. Akademik litsey va professional ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar my.edu.uz platformasi orqali o‘qish joyidan malumotnomani onlayn yuklab olishlari mumkin. O‘quvchilar my.gov.uz portoli orqali yuborishlari mumkin. Arizalar reglamentga muvofiq imtiyozlar va ustuvorliklar ketka-ketligi asosida qabul qilinadi, transfer.edu.uz orqali o‘qishni tiklash, o‘qishni ko‘chirib tiklash, o‘qishni ko‘chirish ta’lim shaklini o‘zgartirish uchun onlayn ariza topshirishi mumkin. RTR- raqamli ta’lim resurslari – ta’lim berishda kompyuterni talab qiladigan mahsulotidir. RTRda o‘qitishda vizualizatsiyaning tezkor vositasi, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda uy vazifasini kuzatish va baholashda, matnlarni tahrirlashva o‘quvchilarning ijodiy ishlarini xatolarini tuzatishda operativ vosita xisoblanadi. Raqamli ta’lim rtr.prof.edu.uz saytidan foydalanishadi, resursning maqsadi axborot jamiyatida o‘quvchilarning intellektual imkonyatlarini mustaxkamlash, shuningdek, talim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim sifatini yaxshilash.

O‘rta tibbiy ta’lim sohasida shuningdek boshqa ta’lim sohalarida ham VR o‘quvchilarning bilim olish uslubini o‘zgartiradi. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xalokova U.M.(2020). Maktabgacha ta'lim muasasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarblii. 13-2, C. 78-79
2. Boboeva M.N , Rasulov T.H (2020)The method of using problematic equation in teaching theory of matrix to students Academy 55:4pp. 68-71.
3. Murodov Sh.N Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish – davr talabi pedagogs jurnali
4. Tillayev A.I Axborot texnologiyalari Kurslari bo'yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda qo'llash
5. Rashidov A.SH (2020)n. The usage of foreign experiencrin effective.